

## TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI VA AHAMIYATI

**Bayzakova Maftuna Abulqosim qizi**

*Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU Pedagogika  
ta'limi nazariyasi kafedrası tayanch doktranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida pedagogik akmeologiya fanining rivojlanishi va ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье описывается развитие и значение науки педагогической акмеологии в образовательном процессе.

**Annotation:** This article describes the development and importance of the science of pedagogical acmeology in the educational process.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, jarayon, akmeologiya, fan, rivojlanish, tarixi, o'rni, kelib chiqishi.

**Ключевые слова:** образование, процесс, акмеология, наука, развитие, история, место, зарождение.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi asosiy maqsadlaridan biri – pedagog kadrlarni zamon talablariga mos tarzda tayyorlash, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. “Har qanday murakkab zamonaviy axborot texnologiyalar, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, avvalo, o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga o'quvchilar ongi va tafakkuriga yetkaziladi”[1]. Ta'lim sohasidagi olib boriladigan har qanday ishlar o'z-o'zidan “ijodkorlik” tushunchasini olib kirdi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, har qanday taraqqiy etgan mamlakatning muvafaqqiyatini belgilab beruvchi omil kadrlarning ijodkorlik faoliyatlarini yuqori “cho'qqi”larga olib chiqish bilan uzviy bog'liq. Pedagoglar tabiatini o'zgartiradigan, ular shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan muhim fanlardan bir – bu pedagogik akmeologiya fanidir. Aniqlanishicha, inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishi hodisasidir. Ma'lumki, inson shaxsi juda murakkab psixologik fenomen bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida asta-sekin tarkib topadi. Shu bois ham, akmeologiya - shaxsning rivojlanish va komillikka erishish jarayonini o'rganuvchi maxsus fan hisoblanadi. Akmeologiya (grekcha «akme –cho'qqi, yuqori pog'ona, gurkiratuvchi kuch» ma'nolarini bildiradi) – ilmu-fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini

o'rganadi. Ya'ni, u shaxsni o'z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning ob'ektiv hamda sub'ektiv omillari doirasida tadqiq etadi.

Pedagogik tafakkurning akmeologik yo'sinda rivojlanishi oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining mutaxassis sifatida yaxlit tarzda kasbiy yuksalishini anglatadi. Bu jarayonda tarbiyachi shaxsiy, ma'naviy, kasbiy jihatdan mustaqil rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarbiyachida kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashning rivojlanishi pedagogik faoliyat refleksiyasi va kasbiy xulq-atvorning takomillashuviga olib keladi. Bularning barchasi bevosita oliy pedagogik ta'limning akmeologik yondashuvga tayangan yangi mazmuniga asoslangan modelini joriy etish bilan bog'liq.

Pedagogik-psixologik jihatdan dinamik tarzda o'zgarib boruvchi kasbiy rivojlanish jarayonining tavsifi bo'lajak tarbiyachilarning ruhiy, psixofiziologik taraqqiyotidagi bo'shliqlarni aniqlash, shu asosda ularga pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi orqali ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa ularning kasbiy rivojlanish tizimini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Akmeologik maslahat - bu o'qituvchilar bilan o'zlarining kasbiy faoliyatlari, pedagogik darajalariga erishishda yordam berish bilan bog'liq individual ish. "Men" konsepsiyasini o'zlashtirish, shakllantirish va amalga oshirish va boshqalar. Akmeologiya nuqtai nazaridan professionallik - bu "akme" tomon harakat qiladigan o'zini o'zi rivojlanayotgan shaxsning xususiyati yoki kasbdagi mahoratning eng yuqori cho'qqisi. Akmeologiya fan sifatida mutaxassisni kasbda va umuman hayotda rivojlantirishning asosiy yondashuvlarini, shuningdek, shaxsni takomillashtirish va o'zini rivojlantirishning muvaffaqiyatini, uning o'zini o'zi anglashining to'liqligini belgilaydigan omillar, sharoitlar, mexanizmlarni o'rganadi.

Akmeologiyaning asosiy mazmun mohiyati — har bir kasb hunarni ilm bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi, ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, ijodiy faoliyatni kasb hunar sohasidagi burch va mas'uliyatni ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishish jihatlarini fanlar bilan uyg'unlikda o'rganishdan iborat bo'lib, u insonning ijtimoiy iqtisodiy, ma'naviy dunyosida yuksakroq cho'qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o'rganadi. Bundan ko'rinib turibdiki ushbu fan nafaqat rivojdagi cho'qqisini balki, rivojlanishgacha va undan keyingi bosqichlarni ham o'rganadi. Ma'lumki insonning rivojlanishi bevosita obektiv va subektiv omillarga bog'liq. Obektiv omil: ta'lim sifatini o'zi ichiga olsa, subektiv omil: insonning mahorati va qobiliyati, uning mas'uliyati va kompetensiyasi, muammolarni samarali hal qilish ko'nikmasi kiradi. Akmeologiya bugungi jamiyat rivojida ham katta o'rin egallagan. Chunki yoshlarning rivojlanishi, ularning munosib avlod bo'lib yetishishi, avvalo shaxsiy va kasbiy faoliyatida o'z o'rnini topishi muhim hisoblanadi. Bilamizki ma'naviy jihatdan qoloq, o'z o'rniga ega bo'lmagan, tarixini

bilmaydigan yoshlarni yot g'oyalar o'z domiga tortib oladi. Yoshlarning ongidagi bo'shliqni biz ezguliklar bilan to'ldirishga harakat qilmasak, ularni boshqalar yovuzliklar bilan to'ldiradi. SHunga ko'ra akmeologiyani tamoyillarini quyidagicha sanashimiz mumkin: 1) Mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berish bunda ular uchun sog'lom muhit yaratish, ta'lim tizimini isloh qilish, qadriyatlar, urf odatlarni tiklash, yoshlarda ularga nisbatan hurmatni shakllantirish. 2) O'zbekistonda barkamol avlod tarbiyasida jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatlariga etibor berish 3) Jamiyat muammolarini yoshlar muammolaridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. SHu boisdan ham yoshlar shaxsining shakllanishida akmeologik bilimlardan foydalanish zarur. Akmeologiya insoniy fanlar tizimidagi fanlararo bilim sohasidir, bu o'z taqdirini o'zi belgilash, hayotiy tajriba, ijtimoiy muhit va ta'lim shaxsiy va kasbiy mahoratning rivojlanish INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE British International Science Conference 158 qonuniyatlari haqidagi fan. U rivojlanish bosqichida bo'lgan yangi fandir. Bu fanning boshqa fanlardan ustuvorligi, u insonning butun hayot yo'lini o'rganadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, malakali pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish uchun, birinchi navbatda, oliy pedagogik ta'lim mazmunini akmeologik yondashuv asosida modernizatsiyalash parametrlarini aniqlash hamda shu asosda o'quv-metodik majmualar mazmunini qayta qurish, bunda yangi pedagogik yondashuvlar, yo'nalishlar, paradigmalarning o'quv-metodik majmualar mazmunida keng o'rin olishiga erishish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bunda oliy pedagogik ta'lim mazmunini ta'lim oluvchilar shaxsiga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega. Chunki pedagogik faoliyatni akmeologik yondashuv asosida shakllantirish uchun, birinchi navbatda, mutaxassislarning pedagogik tafakkuri va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Pedagogik bilimlarni o'zlashtirish uchun, dastlab, mazkur maqsadga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni, shakllari, metodlarini yangilash talab etiladi. Shu asosda o'quv jarayonini muvaffaqiyatli tarzda mustaqil bilim olish jarayoniga aylantirish, bunda akmeologik yondashuvning ustuvor o'rin egallashini ta'minlash mumkin. Akmeologiya nuqtai nazaridan professionallik - bu "akme" tomon harakat qiladigan o'zini o'zi rivojlanayotgan shaxsning xususiyati yoki kasbdagi mahoratning eng yuqori cho'qqisi. Akmeologiya fan sifatida mutaxassisni kasbda va umuman hayotda rivojlantirishning asosiy yondashuvlarini, shuningdek, shaxsni takomillashtirish va o'zini rivojlantirishning muvaffaqiyatini, uning o'zini o'zi anglashining to'liqligini belgilaydiganomillar, sharoitlar, mexanizmlarni o'rganadi. Pedagogik akmeologiyani markaziy tushunchalaridan biri bu o'qituvchining kasbiy mahorati tushunchasi. Bu o'qituvchi shaxsining ajralmas xarakteristikasi sifatida tushuniladi, u kasbiy faoliyatning bir nechta turlariga egalik qilishni va talabalarda o'qitish va



tarbiyalashda kasbiy pedagogik muammolarni samarali hal qilishni ta'minlaydigan o'qituvchida kasbiy muhim psixologik fazilatlarning mavjudligini nazarda tutadi. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Pedagogik akmeologiya fanni qancha rijovlansa, jamiyat ham shu darajada rivoj topadi. Sababi o'z kasbining to'la qonli mutaxassisi bo'lgan o'qituvchilar qo'lida ta'lim-tarbiya olgan yoshlar tom ma'noda Uchinchi Renesans yoshlari bo'la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

- 1.Xoliqov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish , -Toshkent, 2015y. 9-b.
- 2.F. O. Xodjiyeva.Ta'lim jarayonida pedagogic akmeologiya fanining o'rnini, -Novoiy, 2020y. 7-b.
- 3.''Pedagogik akmeologiya,, kollektivnaya monografiya . 2012g.